



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI



"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DM

100011, Toshkent shahri, Abay ko'chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-01, E-mail: davexpertiza@exat.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: Inoyatov Mirabbos Mirkomilovich

Sana: 03-11-2025 yil



YIG'MA EKSPERT XULOSASI

264182 - SONLI

Obyekt nomi: "Toshkent shahri, Mirobod tumani, "Mingo'rik" MFY, Yahyo G'ulomov ko'chasi, 93-uy manzilida O'z yer uchastkasiga yerto'la qismida avtoturargoh bo'lgan pastki qavatlarida savdo-maishiy xizmat ko'rsatish markazi (mexmonxona, ofis, ma'muriy binolar, apart-otel ko'ngilochar, savdo majmualari va ko'p tarmoqli MIXEDUSE), hamda yuqori qavatlarida ko'p qavatli turar-joy binolari qurish" uchun mavjud binolarni demontaj va yer uchastkasiini tayyorlash ishlari" ishchi loyihasi	
Buyurtmachi:	ANKHOR BUSINESS BUILDING MCHJ
Bosh loyihachi:	"AZIYA-DIZAYIN LOYIHA" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	buyurtmachi tomonidan aniqlanadi
Qurilish turi:	Rekonstruksiya
Murojaat raqami:	097675

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan 2025-yil 23-mayda berilgan 192964869-sonli ruxsatnomasi.

1.2. Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan 2025-yil 17-iyunda berilgan 1726-1726273-228244-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig'i.

1.3. Belgilangan tartibda kelishilgan va 2025-yilda buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig'i.

1.4. «GEO ENGINEERING LOYIHA» MChJ tomonidan 2025-yilda bajarilgan qurilish maydonchasining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risidagi xulosa.

1.5. Loyiha hujjatlarini ishlab chiqish uchun 2025-yil 1-avgustda tuzilgan 250730/8-sonli shartnoma.

1.6. O'rnatilgan tartibda 2025-yil 25-sentyabrda Buyurtmachi tomonidan tasdiqlagan nuqson dalolatnomasi.

1.5. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Seysmologiya instituti tomonidan "Toshkent shahri, Mirobod tumani, "Mingo'rik" MFY, Yahyo G'ulomov ko'chasi, 93-uy

manzilida O'z yer uchastkasiga yerto'la qismida avtoturargoh bo'lgan pastki qavatlarida savdo-maishiy xizmat ko'rsatish markazi (mexmonxona, ofis, ma'muriy binolar, apart-otel ko'ngilochar, savdo majmualari va ko'p tarmoqli MIXEDUSE), hamda yuqori qavatlarida ko'p qavatli turar-joy binolari" qurilish maydonchalari uchun muhandislik-geoteknik tadqiqotlar va sintetik akselerogrammalarni hisoblash ishlarini olib borish" bo'yicha 2025-yilda bajarilgan hisoboti.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko'ra ishchi loyihaning elektron yo'nalishda taqdim qilingan loyiha hujjatlari.

- bosh reja (GP);
- konstruktiv yechimlar (KJ);

2.2. Qurilishni tashkil qilish loyihasi (POS).

2.3. «ANKHOR BUSINESS BUILDING» MChJ tomonidan 13.10.2025-yilda berilgan 2-sonli kafolat xatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. *Qurilish maydonchasining ma'lumotlari.*

Normativ shamol bosimi - $W_o = 0,38$ kPa.

Normativ qor qatlami vazni - $S_n = 0,50$ kPa.

Tumanning zilzilabardoshligi - 8 ball.

Tadqiqot hududida va o'rganilgan tuproq qatlamlarida (yerlarida) GOST 25100-2020 tasnifiga muvofiq 4 ta MGE aniqlandi:

MGE-1 - suglinok, lyossimon tuproq.

MGE-2 - och jigarrang qum.

MGE-3 - dag'al donador tuproqlar.

Tuproq cho'kuvchanligi - II (ikkinchi).

Tuproqning seysmik toifasi - ikkinchi.

Yer osti suvlari yer sathidan 12.0-15.0 m chuqurlikda joylashgan.

Tuproqning muzlash chuqurligi - 0,7 m.

3.2. *Bosh reja.*

Qurilish maydoni Toshkent shahri, Mirobod tumani, "Mingo'rik" MFY, Yahyo G'ulomov ko'chasi, 93-uy manzilida joylashgan bo'lib, hudud mavjud turar-joy binolari bilan chegaradosh.

Bosh reja texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari

Hudud maydoni - 19862.0 m²

Qurilish maydoni - 5017.0 m²

Qoplamalar maydoni - 5782.0 m²

Ko'kalamzorlashtirish maydoni - 45.7 m²

3.3. *Loyihaviy yechimlar.*

Loyihaning ushbu bosqichida mavjud binoni buzish (demontaj) ishlari va handak (kotlovan) qirg'oqlarini mustahkamlash ishlari ko'zda tutilgan.

Loyihalananayotgan bino handak (kotlovan) qirg'oqlarini qoziqlar (buronabivnoy) bilan mustahkamlash ko'zda tutilgan.

Qoziqlar diametri 0.8sm, uzunligi 20.7-21.2 m bo'lgan monolit temirbetondan iborat.

Qoziqlar ustki qismida o'lchamlari 800x600 mm bo'lgan balka (ogolovka) bilan birlashtirilgan.

Bundan tashqari, qoziqlar handak devorlariga uzunligi 22.0-30.0m bo'lgan tortish qoziqlari bilan ham mustahkamlangan.

Qoziq devorlar ichki tarafdin o'lchami 400x1200mm bo'lgan monolit temirbeton kamar (obvyazochnyy poyas) bilan mustahkamlangan. Bundan tashqari diametri 820x13mm bo'lgan po'lat quvurlar (rasporka) bilan mustahkamlangan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Loyihaning ushbu bosqichida ko'zda tutilmagan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Ishchi loyiha quyidagi tashkilotlar tomonidan ko'rib chiqilgan va kelishilgan:

- Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi (2025-yil 26-sentyabrdagi 215486977-sonli xulosa).

- O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi davlat ekologik ekspertizasi markazi, Toshkent shahar filiali (2025-yil 24-iyundagi 01-02/14-6881-sonli davlat ekologik ekspertiza xulosasi).

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko'ra qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) bilan **27 021 184 697** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

2 357 457 836 so'mga kamaytirilib, **24 663 726 861** so'mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **22 021 184 697** so'm

QQS: **2 642 542 164** so'm

6.1. Ishchi loyiha ekspertiza ko'rigiga buyurtmachining loyihaviy yechimlari izohlarsiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi.

6.3. Ekspert tekshiruv natijalariga ko'ra qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) bilan, buyurtmachining boshqa xarajatlarsiz 27 055 057.655 ming so'm miqdorida topshirilgan qurilish qiymati 2 391 330.794 ming so'mga kamaytirilib, 24 663 726.861 ming so'mni tashkil qildi, shu jumladan:

Qurilish-montaj ishlari - 22 021 184.697 ming so'm.

Qo'shimcha qiymat solig'i - 2 642 542.164 ming so'm.

Kamaytirishga ish hajmlari, elementar resurs me'yorlari standartlari, mashinalar va mexanizmlar uchun ekspluatatsiya xarajatlari, qurilish materiallari, qurilish ishchilarining mehnat xarajatlari, asosiy ishlab chiqarish xarajatlarini belgilash orqali erishildi.

Demontaj ishlari paytida, materiallar qaytarish qiymati buyurtmachi va pudratchi bilan birgalikda aniqlanishi kerak.

6.4. Ishchi loyihaning asosiy qurilish montaj ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida, hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarorida belgilangan tartibga ko'ra "Nazorat o'lchovi" natijalari bo'yicha aniqlanadi.

6.5. Buyurtmachiga loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

Bundan tashqari, ishchi loyihaning keyingi bosqichlarini to'liq ishlab chiqishi va ekspertiza ko'rigiga taqdim qilishi shart.

6.6. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o'rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha hujjatlarini o'zgartirish talabi qo'yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va smeta hujjatlari buyurtmachiga to'liq tuzatishlarsiz berilsa,

ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarori 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida "Mualliflik nazorati" ni amalga oshirilishinni ta'minlaydi.

6.8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi 579-sonli qarorining 3-bob 29-bandiga muvofiq va ShNK 1.03.06-13 ga asosan «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo'yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo'yicha) yuklatiladi.

7. Xulosalar.

7.1. "Toshkent shahri, Mirobod tumani, "Mingo'rik" MFY, Yahyo G'ulomov ko'chasi, 93-uy manzilida O'z yer uchastkasiga yerto'la qismida avtoturargoh bo'lgan pastki qavatlarida savdo-maishiy xizmat ko'rsatish markazi (mexmonxona, ofis, ma'muriy binolar, apart-otel ko'ngilochar, savdo majmualari va ko'p tarmoqli MIXEDUSE), hamda yuqori qavatlarida ko'p qavatli turar-joy binolari qurish" uchun mavjud binolarni demontaj va yer uchastkasiini tayyorlash ishlari" ishchi loyihasi ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko'rib chiqib, kelishishga tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Avazov Xashimjon To'rabayevich.

Ishtirokchi ekspertlar: Xisravdinov Shahobiddin Mikridin O'g'li, Yunusov Anvar Baxtiyarovich